O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil 16-martdagi 101-son buyrug‘iga
24-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (malaka oshirish) KURSINING

O‘QUV REJASI

Malaka yo‘nalishi:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari

(2-toifali va mutaxassis o‘qituvchilar)

I. O‘QUV JARAYONI JADVALI

Vaqt	**Kunlar**																						**O‘quv jarayoni**			
Hafta	**1-hafta**						**2-hafta**						**3-hafta**										**Jami**	**Nazariy**	**Amaliy**	**Yakuniy attestatsiya**
Kun	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23				
Soat	6	6	6	6	6		6	6	6	6	6		6	6	6	6	6		6	4				100	22	72	6

II. O‘QUV REJASI

T/r	O‘quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o‘quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)			Soatlarning haftalar bo‘yicha taqsimoti			
							1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
		Soat	**%**	Jami	Nazariy	Amaliy	30	30	30	10
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**9**	**10**	**11**	**12**
I	**Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**	**20**	**20,0**	**20**	**8**	**12**	**12**	**8**	**0**	**0**
1.1	Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar	8		8	2	6	8			
1.2	O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi	4		4	2	2		4		
1.3	Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi	4		4	2	2	4			
1.4	Ta’limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv	4		4	2	2		4		
II	**Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**	**26**	**26,0**	**26**	**8**	**18**	**6**	**10**	**10**	**0**
2.1	Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik	4		4	2	2	4			
2.2	Zamonaviy ta’lim paradigmalari	6		6	2	4	2	4		
2.3	O‘quv jarayonini samarali tashkil etish	6		6	0	6		6		
2.4	Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt	6		6	2	4			6	
2.5	Formativ va summativ baholash tamoyillari	4		4	2	2			4	
III	**Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar**	**48**	**48,0**	**48**	**6**	**42**	**12**	**12**	**20**	**4**
3.1	Davlat va huquq asoslari fanida darsliklar tahlili	6		6	2	4	6			
3.2	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalari	10		10	2	8	2	6	2	
3.3	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish	10		10	2	8	4	6		
3.4	Davlat va huquq asoslari darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash	6		6	0	6			6	
3.5	Davlat va huquq asoslari darslarida me’yoriy hujjatlar bilan ishlash metodikasi	6		6	0	6			6	
3.6	Oila huquqi bo‘yicha ta’lim va tarbiyani kompleks tashkil etish yo‘llari	6		6	0	6			6	
3.7	Tanlov moduli	4		4	0	4				4
IV	**Yakuniy attestatsiya**	**6**	**6,0**	**6**		6				**6**
	Hammasi	**100**	**100,0**	**100**	**22**	**78**	**30**	**30**	**30**	**10**

Izoh:

1. O‘quv rejasi asosida kurs mashg’ulotlarini tashkil qilishda:
   - o‘quv rejadagi modullarning nomlanishi va ularga ajratilgan soatlar miqdorini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi;
   - o‘quv yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda o‘quv modullariga ajratilgan soatlarning haftalar bo‘yicha taqsimotini mustaqil belgilash mumkin.
2. Tinglovchilar o‘quv rejaning “Tarix fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” moduli bo‘yicha ilg’or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo‘llashga doir topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini (loyiha ishi, mikrodars va boshqa) tayyorlaydilar.
3. Yakuniy attestatsiya kurs oxirida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholashdan iborat yakuniy nazorat sinovi va malaka ishi (loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti) himoyasi tarzida o‘tkaziladi.
4. Malaka ishi tinglovchilar tomonidan mustaqil tayyorlanadi va uning himoyasini o‘tkazish ajratilgan vaqtlarda amalga oshiriladi.
5. Ushbu o‘quv reja malaka oshiruvchi kadrlarning quyidagi yo‘nalishlari uchun amal qiladi:
   1) Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari (2-toifa va mutaxassis)

O‘quv reja A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2026-yil 25-fevraldagi 3-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i — H.G‘aniyev

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti rektori — A.Ismailov

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti birinchi prorektori — D.Xakimova

OXT8823

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI O‘QITUVCHILARI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (malaka oshirish) KURSINING

O‘QUV DASTURI

(2-toifali va mutaxassis o‘qituvchilar uchun)

Toshkent – 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o‘quv dasturi

Tuzuvchilar: D.A.Vohidov, N.M.Turapova

Taqrizchilar:

S.A.Ishanxodjayev	-	A.Avloniy nomidagi edagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar kafedrasi” v.b. dotsenti, yu.f.n.
B.E.Karshiyev	-	Fan va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy fanlar kafedrasi” dotsenti, s.f.f.d. (PhD)

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2026-yil 25-fevraldagi 3-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati amalga oshirish, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktab ta’limi sifatini yaxshilashda fan o‘qituvchilarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy yondashuvi, sinfni boshqarish, ota-onalar va o‘quvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, inklyuziv ta’limni tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari fan o‘qituvchilarini malaka oshirish kurslarida o‘qitish va ularga malaka sertifikatini berish kursining o‘quv dasturi,

ular egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalar va umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari kasb standarti bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

1.1. Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1.2. O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi

1.3. Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi

1.4. Ta’limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv

II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

2.1. Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik

2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari

2.3. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish

2.4. Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari

III. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar

3.1. Davlat va huquq asoslari fanida darsliklar tahlili

3.2. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalari

3.3. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish

3.4. Davlat va huquq asoslari darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash

3.5. Davlat va huquq asoslari darslarida me’yoriy hujjatlar bilan ishlash metodikasi

3.6 Oila huquqi bo‘yicha ta’lim va tarbiyani kompleks tashkil etish yo‘llari

3.7. Tanlov moduli

IV. Yakuniy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi – o‘quv fani bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir mahorati va kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish;

ularning kasbiy rivojlanish tizimi uzluksizligini ta’minlash va o‘qitishning innovatsion g‘oyalari bilan tanishtirish;

zamonaviy yondashuvlar asosida ularning kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajriba asosida yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;

jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini o‘rgatish;

kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intelerktni qo‘llash malakalarini rivojlantirish;

ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti asosida, tegishli yo‘nalish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari malaka oshirish o‘quv kursining hajmi **4 ta blok, 16 ta modul** va yakuniy sinovdan iborat bo‘lib, jami **100 soatni** tashkil etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (*malaka oshirish*) kursining o‘quv dasturi modullarining mazmuni

T/r	O‘quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o‘quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)			Yakuniy attestatsiya
		Soat	%	Jami	Nazariy	Amaliy	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*
I	Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	20	20	**20**	8	12	
II	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	26	26	**26**	8	18	
III	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar	48	48	**48**	6	42	
IV	Yakuniy attestatsiya	6	6,0				6
	Jami	**100**	**100,0**	**94**	**22**	**72**	**6**

Izoh: ***“Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish”*** *hamda* ***“Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish”*** *bloklari tarkibiga kiruvchi o‘quv modullarining dasturi alohida invariant dastur sifatida tasdiqlangan.*

III. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

3.1. “Davlat va huquq asoslari fanida darsliklar tahlili” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Davlat va huquq asoslari fanining me’yoriy huquqiy asoslari	2	2	
2.	Davlat va huquq asoslari fanidan yangi avlod darsliklari bilan ishlashda interaktiv va kognitiv yondashuv	2		2
3.	Darsni rejalashtirishda maqsad, mazmun va faoliyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash	2		2
	Jami	**6**	**2**	**4**

3.1. “Davlat va huquq asoslari fani darsliklar tahlili” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanining me’yoriy huquqiy asoslari

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Yangi avlod darsliklarining me’yoriy asoslari. “Oila kodeksi” haqida. “Fuqarolik kodeksi”dan asosiy normalar. “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksdan o‘quvchiga tegishli boblar. “Voyaga yetmaganlar masalalari” bilan bog‘liq me’yoriy hujjatlar. Konstitutsiya va asosiy kodekslar bilan ishlash. Huquqiy manbalarni topish va qo‘llash ko‘nikmasi. Manbalardan foydalanib xulosa chiqarish. Huquqiy terminlar bilan ishlash.

2-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanidan yangi avlod darsliklari bilan ishlashda interaktiv va kognitiv yondashuv

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Yangi avlod darsliklarining asosiy tamoyillari. O‘quvchilarni faollashtiruvchi yondashuv. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuvi. Konstruktivistik yondashuv. Kognitiv yondashuvning ilmiy asosi (Piaje, Bruner). Sun’iy intellekt asosida tayyor topshiriqlar (qonun moddasini tahlil qilish, normani qidirish). Integratsiya va interdisipliner yondashuv. Vizual dizayn va o‘quvchilarga moslik. Multimedia va raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash. Yangi pedagogik texnologiyalar. Yangi o‘qish metodlari va ko‘nikmalarni rivojlantirish. Baholash va natijalarni o‘lchash.

3-mavzu. Darsni rejalashtirishda maqsad, mazmun va faoliyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Darsning maqsadini belgilash: kompetensiyaviy va o‘lchanadigan yondashuvlar (SMART, Bloom taksonomiyasi). Maqsadga mos mazmunni tanlash va strukturaga keltirish. o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish. Faoliyatlarni maqsadga moslashtirish: interfaol va amaliy metodlarni tanlash. O‘quv faoliyatlari orqali kutilayotgan natijalarni aniqlash va monitoring qilish. Maqsad, mazmun va faoliyatlar uyg‘unligining dars samaradorligiga ta’siri. Mazmun va o‘quv faoliyatlari bilan ug‘unlashtirish

3.2. “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalari” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	O‘quvchilarning ta’lim olishga motivatsiyasini oshirish va darslarda o‘quvchini sinf markaziga qo‘yish	2	2	
2.	Davlat va huquq asoslari darslarida 5E modelini qo‘llash	2		2
3.	Huquqiy kvestlar, vaziyatlar tahlili va simulyatsiyalar	2		2
4.	Keys tadqiqotlari va muammoli ta’lim	2		2
5.	Low Street madaniyati (jamoat madaniyati)ni o‘quvchilarda shakllantirish	2		2
	Jami	**10**	**2**	**8**

3.2. “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalari” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. O‘quvchilarning ta’lim olishga motivatsiyasini oshirish va darslarda o‘quvchini sinf markaziga qo‘yish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

O‘quvchilarga markazli yondashuv. O‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslubi. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish nazariyalari, differensiallashgan ta’lim tamoyillari va faol o‘rganish usullari. O‘quvchilarning abstrakt fikrlash darajasi va texnologik ko‘nikmalari. Ichki motivatsiyani rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. Individual ehtiyojlariga moslashtirilgan darslarini loyihalash. O‘quvchilarning hayotiy tajribalari bilan bog‘liq amaliy mashg’ulotlar yaratish usullari. Individual yondashuvni rivojlantiruvchi guruh ishlarini tashkil etish.

2-mavzu. Davlat va huquq asoslari darslarida 5-E modelini qo‘llash

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

5E ta’lim modeli (The 5E Instructional Model)ning maqsad va vazifalari, amalga oshirish bosqichlari. Dars jarayonini konstruktivizmga asoslangan faol o‘qitish tamoyillariga mos tashkil etish. O‘quvchini faollashtirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Real huquqiy vaziyatlarni anglash va ularga yechim topish ko‘nikmasini shakllantirish. 5E modeli bosqichlari asosida o‘quvchilarni muloqotga, munozaraga va dalillashga jalb

etish. Har bir bosqichda o‘quvchining mustaqil kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash. Baholash jarayonida 5E modeli asosidagi faol ishtirok, mulohaza yuritish va refleksiya ko‘nikmalarini qo‘llash

3-mavzu. Huquqiy kvestlar, vaziyatlar tahlili va simulyatsiyalar

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Interaktiv va amaliy yondashuvni joriy etish. Huquqiy topshiriqlar asosida bosqichma-bosqich yechim topish. Guruhlarda huquqiy izlanish va strategik qarorlar qabul qilish. Huquqiy vaziyatlarga mos javoblar topish ko‘nikmasini rivojlantirish. Darslarni interaktiv va qiziqarli qilish. Dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Bolalar va o‘smirlarning huquqiy javobgarligi. Jamoat mulkini asrash madaniyati. Xavf-xatarlardan ogoh etish, favqulodda holatda murojaat qilish. Mahalla va jamoatchilik nazorati. Raqamli madaniyat: smartfondan ko‘chada foydalanish tartib-qoidalari

4-mavzu. Keys tadqiqotlari va muammoli ta’lim

(2 soat amaliy mashgulot).

Keys tadqiqotlari (Case Studies) va muammoli ta’lim (Problem-Based Learning)ning mazmun mohiyati. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, amaliyotga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarini rivojlantirish. Nazariy bilimlarni real hayot masalalariga tatbiq etish usullari. Huquqiy masalalarni tahlil qilish metodikalari. Huquqshunoslik nazariyalarini qo‘llash va yechimlarni taklif qilish jarayonidagi yo‘l-yo‘riqlar.

5-mavzu. Low Street madaniyati (jamoat madaniyati)ni o‘quvchilarda shakllantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Jamoat tartibi to‘g‘risidagi qonunchilik. Yo‘l qoidalariga amal qilish - huquqiy va fuqarolik burchi haqida. Ommaviy joylarda odob-axloq normalari. Chiqindilarni belgilangan joyga tashlashni o‘rgatish. Transportda boshqalarga o‘rin bo‘shatish madaniyati. Qariyalar, bolalar va nogironlarga yordam berish. Maktab yoniga yaqin hududlardagi maxsus qoidalar. Nodavlat va davlat organlari (YHXX, MMB, Mahalla) bilan hamkorlik. Avariya holatida qanday harakat qilish kerakligi.

OXT8823

3.3. “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Davlat va huquq asoslari fanida dars jarayonini samarali boshqarish va ijobiy muhit yaratish	2	2	
2.	O‘quvchilarga huquqiy ta’lim berishda milliy va xalqaro huquq sohalarini o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari	2		2
3.	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda Sokratik usuldan foydalanish	2		2
4.	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	2		2
5.	Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari	2		2
	Jami	**10**	**2**	**8**

3.3. “Davlat va huquq asoslari faniini o‘qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanida dars jarayonini samarali boshqarish va ijobiy muhit yaratish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Darsni samarali boshqarishning asosiy jihatlari bilan tanishtirish. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish. Sinfni boshqarishda 4K kompetensiyalari integratsiyasi. Ijobiy muhit yaratishda “Ijobiy kuchaytirish”, “Peer-feedback” (Tengdosh fikri orqali rag‘batlantirish) metodidan foydalanish. Darsni samarali boshqarish bo‘yicha xalqaro (“Classroom Management Models”) Classroom Management xalqaro modellari.

2-mavzu. O‘quvchilarga huquqiy ta’lim berishda milliy va xalqaro huquq sohalarini o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Milliy huquqiy tizim va qonun hujjatlarining o‘quvchilar hayotidagi o‘rni. Milliy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim tendensiyalari va metodlari. Milliy huquqda xalqaro normalarning aks etishi. Xalqaro huquq tamoyillari va ularni milliy huquqiy tizim bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO, YUNISEF, MDH, YeXHT) bilan hamkorligi va global huquqiy dasturlar (Inson huquqlari bo‘yicha

Umumjahon deklaratsiyasi, BMT, Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW), Korrupsiyaga qarshi konvensiya (UNCAC))da ishtiroki. Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari (suverenitet, zo‘ravonlikdan tiyilish, huquqiy tenglik).

3-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda Sokratik usuldan foydalanish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Sokratik usulning mohiyati va ta’lim jarayonidagi o‘rni. Sokratik usulning texnologoiyasi. Huquqiy muammoning mohiyatini tushunish va aniqlash texnologiyasi. Murakkab matnlar bilan ishlash va asosiy g‘oyani ajratish. O‘z fikrlarini rivojlantirish. Savol berib tushunishga o‘rgatish. Turli nuqtai nazarlarni va dalillarni tahlil qilish. Muammoli savollar berish orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘z fikrlarini himoya qilish konikmasini shakllantirish.

4-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Davlat va huquq asoslari fanida tanqidiy fikrlashning mazmuni va ahamiyati. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asos bo‘luvchi nazariy yondashuvlar (Konstruktivizm, Bloom taksonomiyasi, Sokratik yondashuv, 4K ko‘nikmalari). Davlat va huquq asoslari darslarida qo‘llanadigan tanqidiy fikrlash metodlari (Savollar zanjiri, debat, fishbone, case-study, “6 shlyapa”, PQE, munozara texnikalari). Huquqiy vaziyatlar va normativ hujjatlar asosida tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quvchilarning dalillash, asoslash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tanqidiy fikrlash jarayonini baholash mezonlari va samaradorlik indikatorlari.

5-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tadqiqotga asoslangan ta’limning nazariy-metodik asoslari va huquqiy ta’limdagi o‘rni. Huquqiy tadqiqot savolini shakllantirish va muammo qo‘yish texnikalari. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan tadqiqot asosida ishlash metodikasi. Tadqiqiy faoliyatda huquqiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish. Tanqidiy fikrlash jarayonini baholash mezonlari va samaradorlik indikatorlari. Huquqiy keyslar asosida tadqiqot olib borish va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tadqiqotga asoslangan dars senariylarini yaratish va amalga oshirish texnologiyasi. Tadqiqotga asoslangan ta’lim jarayonini baholash mezonlari va refleksiv tahlil.

OXT8823

3.4. “Davlat va huquq asoslari darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Ko‘nikmalarga asosan baholash, loyihaviy baholash	2		2
2.	Muqobil baholash. Vizual taqdimotga asoslangan baholash	2		2
3.	Rolli baholash, reflektiv baholash	2		2
	Jami	**6**		**6**

3.4. “Davlat va huquq asoslari darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Ko‘nikmalarga asosan baholash, loyihaviy baholash

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ko‘nikmalarga asoslangan baholashning mohiyati va maqsadi. Ko‘nikmalarga asoslangan baholash natijalarini darsni rejalashtirish va ta’lim jarayonini takomillashtirishda qo‘llash. Loyihaviy baholashning mohiyati, bosqichlari va afzalliklari. Loyihaviy baholashda o‘quvchilarning mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Huquqiy tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari. Hayotiy vaziyatlarda huquqiy me’yorlarni qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish.

2-mavzu. Muqobil baholash. Vizual taqdimotga asoslangan baholash

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Muqobil baholashning mazmuni va turlari (portfolio, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, debatlar). Vizual taqdimotga asoslangan baholashning mohiyati va o‘qitish jarayonidagi o‘rni (infografika, diagramma, plakat), Muqobil baholash natijalarini tahlil qilish va o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash mezonlari. Muqobil baholash jarayonida kreativlik, muloqot va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish. Muqobil baholash natijalaridan o‘quv jarayonini takomillashtirishda foydalanish.

3–mavzu. Rolli baholash, reflektiv baholash

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Davlat va huquq asoslari darslarida rolli baholashning pedagogik va huquqiy asoslari. Rolli baholashda kommunikativ, huquqiy muloqot va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Reflektiv baholashning mazmuni va o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni. Rolli va reflektiv baholash integratsiyasi orqali o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Baholash natijalaridan o‘quv jarayonini takomillashtirishda foydalanish. O‘quvchilarning rolli va reflektiv baholashdagi faol ishtirokini oshirish uchun motivatsion yondashuvlar.

3.5. “Davlat va huquq asoslari darslarida me’yoriy hujjatlar bilan ishlash metodikasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Fuqarolik-huquqiy munosabatlarga doir normativ hujjatlarni izohlash va amaliy vaziyatlarda qo‘llash usullari	2		2
2.	O‘zbekiston Respublikasi Kodekslarida voyaga yetmaganlarning huquqlari	2		2
3.	Me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida huquqiy vaziyatlar yaratish va tahlil qilish metodikasi	2		2
	Jami	**6**		**6**

3.5. “Davlat va huquq asoslari darslarida me’yoriy hujjatlar bilan ishlash metodikasi” modulining o‘quv dasturi

1–mavzu. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarga doir normativ hujjatlarni izohlash va amaliy vaziyatlarda qo‘llash usullari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmuni va normativ-huquqiy asoslari. Normativ hujjatlarni izohlashning (legal interpretation) asosiy tamoyillari. Fuqarolik-huquqiy normaning tuzilmasi va huquqiy oqibatlarini aniqlash metodikasi (Dispozitsiya, sanksiya, subyektlar. Fuqarolik-huquqiy holatlar (case)ni yaratish va normaga bog‘lab tahlil qilish. Normativ hujjatga asoslangan real vaziyatlarda qaror qabul qilish algoritmi. O‘quvchilarda huquqiy fikrlashni shakllantirish: keys-study, debat, rolli o‘yinlar orqali izohlash

2–mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Kodekslarida voyaga yetmaganlarning huquqlari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Kodekslarida voyaga yetmaganlarning huquqlari. Voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari. Voyaga yetmaganlarga huquqiy yordam ko‘rsatish xususiyatlari. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish tizimi.

3-mavzu. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida huquqiy vaziyatlar yaratish va tahlil qilish metodikasi

(2-soat amaliy mashg‘ulot)

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Huquqiy vaziyat (case) yaratishning ilmiy-didaktik asoslari. Me’yoriy hujjatning tuzilishi va moddalarni tahlil qilish tamoyillari. Huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish metodlari. Raqamli huquqiy platformalardan foydalanish (Lex.uz, my.gov.uz, E-SUD). Huquqiy vaziyatlar tahlili asosida o‘quvchilarda tegishli kompetensiyalarni rivojlantirish.

3.6. “Oila huquqi bo‘yicha ta’lim va tarbiyani kompleks tashkil etish yo‘llari” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Oila huquqining asosiy tushunchalari va ularni o‘qitish metodikasi	**2**		2
2.	Oila huquqi bo‘yicha real vaziyatlar asosida dars tashkil etish (Case-study metodikasi)	**2**		2
3.	Oila huquqi mavzusida tarbiyaviy yondashuvlar va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish	**2**		2
	Jami	**6**		**6**

3.6. “Oila huquqi bo‘yicha ta’lim va tarbiyani kompleks tashkil etish yo‘llari” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Oila huquqining asosiy tushunchalari va ularni o‘qitish metodikasi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Oila huquqining mazmuni, predmeti va o‘quv jarayonidagi o‘rni. Oila huquqining asosiy tushunchalari: oila, nikoh, farzandlik, vasiylik va homiylik. Oila kodeksining tuzilishi va moddalar bilan ishlash metodikasi. Nikohning tuzilishi, shartlari va o‘quvchilarga tushuntirish usullari. Oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Farzandlik, vasiylik va homiylikka oid normativ hujjatlarni o‘qitish metodikasi. Oila huquqiga oid huquqiy vaziyatlar (case-study) yaratish va tahlil qilish. Rolli o‘yinlar orqali oila huquqi tushunchalarini mustahkamlash.

2-mavzu. Oila huquqi bo‘yicha real vaziyatlar asosida dars tashkil etish (Case-study metodikasi)

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Oila huquqida case-study metodikasining mazmuni va pedagogik ahamiyati. Oila huquqiga oid real hayotiy vaziyatlarni tanlash mezonlari. Oila kodeksidagi asosiy moddalar asosida case yaratish texnologiyasi. Case-study darsining tuzilishi: muammo–norma–tahlil–yechim modeli. Huquqiy normani vaziyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Guruh va juftliklarda case-study asosida ishlash usullari. Case-study jarayonida o‘quvchi refleksiyasini shakllantirish.

3-mavzu. Oila huquqi mavzusida tarbiyaviy yondashuvlar va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Oila huquqi va tarbiyaviy yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Oila huquqining asosiy tushunchalarini tarbiyaviy nuqtai nazardan o‘qitish. Fuqarolik kompetensiyalari va oila huquqi o‘rtasidagi pedagogik uyg‘unlik. Oila huquqi mavzularida axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish. O‘quvchilarni oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga o‘rgatish. O‘quvchilarni mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasiga yo‘naltirish usullari. Tarbiyaviy yondashuvlar asosida oila huquqini o‘qitishda refleksiv tahlil

3.7. “Tanlov o‘quv moduli”

(4 soat amaliy mashg‘ulot)

3.7.1. “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda inson huquqlarining o‘rni” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Inson huquqlari bo‘yicha real vaziyatlar asosida dars tashkil etish	**2**		2
2.	Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar: o‘quvchilarda huquqiy ong va mas’uliyatni rivojlantirish”	**2**		2
	Jami	**4**		**4**

3.7.1. “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda inson huquqlarining o‘rni” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Inson huquqlari bo‘yicha real vaziyatlar asosida dars tashkil etish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Inson huquqlarini o‘qitishda case-study metodikasining nazariy asoslari (Muammo asosida o‘qitish, tahliliy fikrlash va huquqiy qaror qabul qilishga tayyorlash). Inson huquqlari buzilishi yoki ta’minlanishiga oid vaziyatlarni yaratish texnologiyasi. Inson huquqlariga oid keyslarni guruhda tahlil qilishning interfaol metodlari (Aqliy hujum, Fishbone, PQE, Concept map, Jigsaw).

2-mavzu. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar: o‘quvchilarda huquqiy ong va mas’uliyatni rivojlantirish”

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar (Ombudsman, sud, prokuratura, advokatura, milliy markaz, bolalar ombudsmani)ning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari. O‘quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish: mazmun va pedagogik tamoyillar. O‘quvchilar uchun “Qayerga murojaat qilaman?” modelini o‘rgatish. Rolli o‘yinlar orqali huquqiy mas’uliyatni kuchaytirish (“Ombudsman qabulxonasi”, “Sud jarayoni”, “Mediator muhokamasi”). O‘quvchilarda huquqiy mas’uliyatni rivojlantirishning interfaol texnologiyalari

3.7.2. “Davlat va huquq asoslari darslarida axborot qidiruvi va tahlilida qo‘llaniladigan innovatsion usullar” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Huquqiy axborot qidiruvining maqsadi va ahamiyati	2		2
2.	Axborot qidiruvi va tahlilida qo‘llaniladigan zamonaviy usullar	2		2
	Jami	**4**		**4**

3.7.2. “Davlat va huquq asoslari darslarida axborot qidiruvi va tahlilida qo‘llaniladigan innovatsion usullar” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Huquqiy axborot qidiruvining maqsadi va ahamiyati

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Huquqiy axborotni qidirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Qonun hujjatlarini to‘g‘ri talqin qilish. Huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali

ularning mazmunini anglash texnologiyalari. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro huquq hujjatlari, internet-resurslardan foydalanish usullari (Lex.uz, sud qarorlari ma’lumotlari bazasi). Axborotni qidirish. Axborotni tanlash va baholash.

2-mavzu. Axborot qidiruvi va tahlilida qo‘llaniladigan zamonaviy usullar

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Raqamli texnologiyalar. Lex.uz yoki Ziyonet.uz platformalaridan foydalanish. Elektron qonunchilik bazasi orqali normativ hujjatlarni qidirish va o‘rganish. Qidiruv tizimlari: Google yoki boshqa maxsus qidiruv tizimlaridan foydalanish. Huquqiy materiallarni izlash. Sud qarorlari ma’lumotlar bazasini organish. Huquqiy holatlar bo‘yicha amaliy qarorlarni o‘rganish. Axborot qidirish bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqish usullari.

IV. Yakuniy attestatsiya

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining kurs oxiridagi yakuniy attestatsiyasi malaka ishining himoyasi (dars ishlanmasi va mikrodars) va o‘quv rejaga kiritilgan o‘quv modullari bo‘yicha chiqish test sinovlari yoki boshqa nazorat turlari - yozma ishlar, ijodiy, mustaqil ishlar orqali amalga oshirilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan “Malaka oshirish kurslarining yakuniy attestatsiyasini tashkil etish tartibi”da belgilab qo‘yiladi.

OXT8823

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Huquqiy-me’yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. T., 2020. O‘RQ–637– son. https://lex.uz/docs/-5013007.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, - T.: 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, - T.: 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni, - T.: 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni, - T.: 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, - T.: 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2025-yil 26-dekabr).

Maxsus adabiyotlar

1. Saydullayev Sh., Ismatova N., Sodikov A., Shernayev O., Akkulova S., Abdullayev J. Davlat va huquq asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining

8-sinf uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yangi nashr. Toshkent-2024 yil.

2. Bekov I., Tuychiyeva H., Kostetskiy V., Kamalova D., Turdiyev X., Shernayev O. va boshqalar. Davlat va huquq asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yangi nashr. Toshkent-2024 yil.

3. Tuychiyeva X., Hakimov A., O.Abdug‘aniyev, O.Shernayev, M.Ahmedova. Davlat va huquq asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yangi nashr. Toshkent-2023 yil.

4. Sodikov A., Ismatova N., Bobojonova J.. Davlat va huquq asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yangi nashr. Toshkent-2023 yil.

5. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

6. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

7. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / so‘z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir D.Norboeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboeva. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 bet.

8. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

9. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

10. Xakimova D.M. Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: “Lesson Press” nashriyoti, 2023. – 176 b.

11. Xakimova D.M., Vohidov D.A. O‘quvchilarning huquqiy savodhonligini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2025 yil. 134 b.

12. N. Suyarov. Ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. –Toshkent. Sharq.-2020. 56-b

13. Ibragimov A.A. Malaka oshirish ta’limida muammoga asoslangan o‘qitish texnologiyasini qo‘llash. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.,2022.

14. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. – Guliston, Universitet. 2020.

15. Suvanova K.R**.** Malaka oshirish ta’limida loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasini qo‘llash. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: “Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyorti, 2024. 60 b.

Qo‘shimcha manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.

2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.

3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.

5. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.

7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.

6. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.

7. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.

8. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.

OXT8823